

**SIFAT VA RAVISH: O‘ZBEK TILIDA BELGINI IFODALOVCHI
ASOSIY LEKSEMALARNING QIYOSIY TAHLILI**

Asadova Husnora

Navoiy innovatsiyalar Universiteti 1-bosqich talabasi

Email: m6929850a@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Yo‘ldosheva Dilnoza Xasan qizi**

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsent v.b. f.f.f.d.

Email: dilnozayuldosheva16a@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi belgi ma’nosini ifodalovchi asosiy leksemalar – sifat va ravish kategoriyalarining leksik-semantik, morfologik hamda sintaktik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda bu ikki so‘z turkumining o‘xshash va farqli jihatlari, ularning gapdagi funksional vazifasi, hosil bo‘lish yo‘llari hamda semantik maydon doirasidagi o‘zaro munosabati yoritiladi. Shuningdek, sifatning predmet belgisi, ravishning esa harakat belgisi bilan bog‘liqligi, ularning ma’no darajalari, sinonimik qator hosil qilish imkoniyatlari tahlil etiladi. Maqolada o‘zbek tilshunosligidagi ilgari o‘rganilgan nazariy qarashlar asosida sifat va ravishlarning zamonaviy tildagi ishlanishi, uslubiy imkoniyatlari va nutqdagi o‘rni ham ilmiy jihatdan izohlanadi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tili grammatik tizimini chuqurroq o‘rganish hamda so‘z turkumlari orasidagi semantik chegaralarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: sifat, ravish, belgi ma’nosi, leksema, semantika, morfologiya, sintaksis, qiyosiy tahlil, so‘z turkumlari.

Har bir tilda so‘z turkumlari orasida o‘ziga xos grammatik xususiyatlarda ega. Shu jihatdan morfologiya bo‘limining bir qismi bo‘lmish sifat va ravish so‘z turkumlari til tizimida belgi ma’nosini anglatuvchi eng muhim leksemalar hisoblanadi. **Morfologiya** – bu so‘z turkumlari, ularning shakllanishi, grammatik kategoriyalari va o‘zgarish tizimini o‘rganadigan bo‘lim. Shu sababli sifat va ravish kabi so‘z turkumlari morfologiya fan doirasida o‘rganiladi. **Sifat** – har qanday narsa va hodisaning belgisini, sifatini ifodalovchi leksik birikmadir. Masalan: qizil qalam, oq kabutar.

Boshqa so‘z turkumlari ham belgini ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg‘un belgi ifodalashi jihatidan ajralib turadi. Masalan: qizil gul deganda turg‘un belgi. Gul qizardi deganda esa o‘zgaruvchi belgi namoyon bo‘ladi. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi. Sifat gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, qisman kesim, hol vazifasida keladi.

Belgi tushunchasi o'z ichiga rang-tus, hajm va shakl, xarakter, vazn, maza-ta'm kabilarni qamrab oladi. Belgining xususiyatiga ko'ra sifat ikkiga bo'linadi :

1. Asliy sifatlar
2. Nisbiy sifatlar

Asliy sifat predmetning turg'un, nisbatlanmaydigan va darajalanadigan belgisini ifodalaydi. Masalan: *qizil, ko'k*.

Nisbiy sifatlar belgini qandaydir bir predmet, belgi, miqdor, o'rin va harakatga nisbatan ifodalaydi. Masalan: moddiy yordam, sinig piyola. Nisbiy sifatda darajalanish, qiyoslanish bo'lmaydi. Lekin u daraja belgisiga ega bo'lgan ravishdan asosan predmet belgisini bildirishi bilan farqlanadi.

Sifat turlari:

1. Xususiyat bildiruvchi sifat – narsa, mavjudotning xarakter xususiyatini ifodalashda ko'p qo'llaniladi. Masalan: *yoqimtoy, badjahl, muloyim, dilkash*.

2. Holat bildiruvchi sifat – narsa yoki mavjudotning holat yoki vaziyatini turg'un belgi sifatida ifodalaydi. Holat bildiruvchi sifat yana o'z o'rnida ichki guruhlariga bo'linadi.

- a) tabiiy holat bildiruvchi sifat: *go'zal, mo'min, o'ktam*;
- b) jismoniy holatni bildiruvchi sifat: *bardam, baquvvat, tetik*;
- c) ruhiy holatni bildiruvchi sifat: *xafa, g'amgin, xursand, shod*;
- d) iqtisodiy holatni bildiruvchi sifat: *boy, kambag'al, badavlat, nochor*;
- f) harorat holatini bildiruvchi sifat: *iliq, sovuq, salqin, issiq*;
- g) tozalik holatni bildiruvchi sifat: *toza, ozoda, kir, iflos*;
- h) eskilik, yangilik holatini bildiruvchi sifat: *yangi, eski, ko'hna, juldur*.

3. Shakl bildiruvchi sifat – bu turdagi sifat narsa, predmetning tashqi ko'rinishini ifodalaydi. Masalan: *novcha, yassi, uzunchoq*.

4. Rang-tusni bildiruvchi sifat – narsa va predmetning rangini bildirdi. Masalan: *oq, qora, qizil*.

5. Maza-ta'm bildiruvchi sifat – narsalarning ta'mini bildiradi. Masalan: *shirin, nordon, sho'r*.

6. Hid bildiruvchi sifat: *badbo'y, xushbo'y*.
7. O'lchov bildiruvchi sifat: *keng, tor, uzun, qisqa*.
8. O'rin bildiruvchi sifat: *ichki, tashqi*.
9. Payt bildiruvchi sifat: *kuzgi, yozgi, chillaki*.

Predmetning sifatliy belgisini anglatadigan leksemalarga sifat leksemalar turkumi deyiladi. O'zbek tilida sifat leksemaga shakl o'zgarishi xos emas, shunga ko'ra sifat leksema ot leksemaga shakl o'zgartiruvchisiz to'g'ridan to'g'ri bog'lanadi: *chiroyli uy, keng ko'cha, issiq non* kabi. Sifat leksemalarda shakl yasalishi bor, lekin sifat

leksemalarning barcha leksik-semantik guruhlariga birdek xos emas. Tom ma'nodagi sifat leksema deb asliy sifatlarga aytiladi: *qizil, katta, tetik, issiq, achchiq* kabi. Bular predmetning sifatiy belgisini o'zicha, bevosita anglatadi. Nisbiy sifatlarda esa predmetning belgisi boshqa bir predmetga nisbat berilib anglatiladi: *bugungi (suhbat), kuzgi (qovun)* kabi.

Shakl yasalishi asosan asliy sifatlarga mansub bo'lib, nisbiy sifatlarga ayrim shakl yasovchilari -gina qo'shiladi. Sifat leksemalarga qo'shiladigan eng keng qamrovli morfema -roq affiksi. Bu affiks asli "biroz" ma'nosini ifodalaydi. Masalan, shirin leksemasi belgining ortiq-kamligini ifodalashi jihatidan betaraf; shu leksemaning shirinroq shaklidan "biroz shirin", "nisbatan shirin" ma'nosi anglashiladi; kuchli va kuchsiz leksemalari bilan ularning kuchliroq-kuchsizroq shakllari orasidagi ma'no farqi ham xuddi shunday: "biroz kuchli", "nisbatan kuchsiz" kabi.

Ko'rinadiki, bir predmetga xos belgi boshqa bir predmetdagi shunday belgiga nisbatan ifodalanadi: keng xona birikmasida keng sifat leksemashakli xonaning keng ekanligini o'zicha, bevosita, qiyoslanmagan holda anglatadi; kengroq xona birikmasida kengroq sifat leksemashakli "*biroz keng*" ma'nosini anglatadi, bunda belgi qiyosan aniqlanadi: agar xona o'zi keng bo'lsa, undan ko'ra biroz keng xona tushiniladi.

Sifat so'z turkumi til tizimida predmetning turg'un belgilarini ifodalovchi asosiy leksema hisoblanadi. Biroq til tizimida belgining faqat predmetga emas, balki harakat yoki holatga ham taalluqli bo'lishi mumkin. Ana shunday holatda ravish kategoriyasi yuzaga chiqadi.

Harakatning belgisini payt, o'rin, holat-tarz, miqdor, maqsad kabi belgilarni bildirgan so'z turkumiga ravish deyiladi. Ravishning ma'no turlari:

1. Holat ravishi – haraktning qay tarzda bajarilishini bildirgan ravishlarda holat ravishlari deyiladi. Ular qanday?, qanaqa? So'rog'iga javob bo'ladi. Masalan: qo'qqisdan, bexosdan.

2. Payt ravishi – harakatning bajarilish paytini bildirgan ravishlarga payt ravishlari deyiladi. Ular qachon?, qachongacha?, qachondan? So'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: bugun, kecha,

3. o'rin ravishlari – harakat va holatning o'rnini bildirgan ravishlarga o'rin ravishlari deyildi. Ular qayer?, qayerda?, qayerga? Degan so'roqlarga javob beradi. Masalan: oldinda, olisda, uzoqdan, yaqindan.

4. Miqdor -daraja ravishi- harakatning miqdorda darajasini bildirgan ravishlarda daraja miqdor ravishlari deyiladi. Qancha?, qanchagacha? So'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: ancha, picha, sal-pal.

5. Maqsad – harakatning bajarilish maqsadini bildiruvchi ravishlarga aytiladi. Ular nimaga?, nahot, nega svollarga javob bo'ladi.

Ravish leksemalarning o‘ziga-gina xos shakl yasovchi affiks yo‘q.

Quyida tasvirlangan affikslar boshqa turkum leksemalari qatori ravish leksemaga ham qo‘shiladi:

1. Ayrim ravish leksemalarga xuddi sifat leksemalarda bo‘lganidek -roq shakl yasovchisi qo‘shiladi: tezroq gapir, sekinroq yur, kechroq kel kabi. Bu yerda ham roq affiksi “me’yordan oz” ma’nosini emas, balki “biroz”, “nisbatan” ma’nosini ifodalaydi. Masalan, tezroq yur- birikmasida tezroq ravishi “biroz tez” ma’nosini anglatadi; -roq affiksi harakat o‘zi sust bo‘lsa, biroz tezlatishni, harakat o‘zi jadal bo‘lsa, yana ham tezlatishni bildiradi. Demak, o‘lchov – harakatning tez yoki sekin kechimi.

2. Ayrim ravish leksemalarga, ot va sifat leksemalarda bo‘lganidek, “iliq Munosabat” ifodalovchi -gina affiksi qo‘shiladi: tezgina kel-, sekingina shivirla kechagina ket- kabi.

3. Ayrim ravish leksemalar oldidan, xuddi sifat leksemalarda bo‘lganidek, juda, g‘oyat, eng kuchaytiruv morfema-affiksoidini keltirish bilan ravish leksema anglatadigan belgi kuchli darajada ifodalanadi: juda tez gapir, eng sekin yur- kabi.

Sifat va ravish o‘zbek tilidagi “belgi” semantikasining ikki qutbini tashkil etadi: sifat – predmetning turg‘un belgisi, ravish – harakatning jarayoniy belgisi. Bu qarama-qarshilik statika dinamika, doimiylikdavriy o‘zgaruvchanlik, bevositalik nisbatlilik o‘qlarida namoyon bo‘ladi. Sifatning “daraja” tizimi (-roq, juda, nihoyatda) ko‘proq qiyosiy intensivatsiyaga tayansa, ravishda ayni vositalar jarayonning kechish sur‘ati/holatini modulyatsiya qiladi.

Sifat va ravish tizimlari bir xil “belgi” konseptidan oziqlansa-da, nomlash (sifat) va jarayonni modullash (ravish) funksional vektorlariga ega. Affiksatsiya va kuchaytirgichlar bu vektorlarni turlicha yo‘naltiradi. Shuning uchun ham belgi semantikasini o‘rganishda kategoriyaaro gradientlik, kontekstga bog‘liqlik va pragmatik qiymat tamoyillarini birgalikda qo‘llash optimal ilmiy yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – T: Universitet, 2006.
2. Sodiqova M. Hozirgi o‘zbek tilida sifat. – T: Fan, 1974.
3. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N., Yusupova Sh., Mahmudov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T: Ilm Ziya, 2013.
4. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent, 2009.